



**HINDISTON VA AVSTRALIYA O'RTASIDAGI SAVDO
DIPLOMATIYASI VA ECTA BITIMI SHAROITIDA IQTISODIY
HAMKORLIKNING RIVOJLANISHI HAMDA RAQAMLI
IQTISODIYOTNING TA'SIRI**

Malikov Numonjon Kamalovich

*JIDU, Xalqaro moliya va
investitsiyalar kafedrasi o'qituvchisi*
+998909896544
nmalikov@uwed.uz

Elmurodov Muxammadqodir Nurmuhammad o'g'li

*JIDU, XIM fakulteti, Tashqi iqtisodiy
faoliyat yo'nalishi magistranti*
+998993840521
elmurodovm9@gmail.com

ABSTRACT

This article examines the modern evolution of trade diplomacy between India and Australia, focusing on the economic impact of the ECTA agreement and the growing role of the digital economy and international payment systems in shaping bilateral trade. The study explores recent reforms implemented by both countries to modernise external trade policy, digitalise customs procedures, simplify export regulations, expand services trade, and enhance electronic payment infrastructure. India's digital trade ecosystem - including FTP 2023, E-Amrit, and RoDTEP - and Australia's rules-based trade governance supported by DFAT and FIRB are analysed using official statistical data and sectoral indicators.



The article provides an in-depth assessment of ECTA-driven changes in key sectors such as pharmaceuticals, IT services, renewable energy, education, mining technologies, and cross-border digital trade. A particular emphasis is placed on the strategic concept of “strengthening political trust through digital trade mechanisms,” which has become a defining feature of India - Australia economic relations. The findings offer valuable policy implications for Uzbekistan, highlighting opportunities to improve international payment systems, develop digital export platforms, enhance trade security, and modernise trade diplomacy within the broader framework of the digital economy.

Keywords: India, Australia, trade diplomacy, ECTA, digital economy, international payment systems, DFAT, MEA, FIRB, export policy, digital trade platforms, customs digitalisation, tariff liberalisation, renewable energy cooperation, services trade, bilateral economic relations.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Hindiston va Avstraliya o'rtasidagi savdo diplomatiyasining zamonaviy rivojlanishini, ECTA bitimi asosida shakllangan iqtisodiy hamkorlikni hamda raqamli iqtisodiyot va xalqaro to'lov tizimlarining savdo jarayonlariga ta'sirini tahlil qiladi. Tadqiqotda ikki davlatning tashqi savdo siyosatini modernizatsiya qilish, bojxona tartibotlarini raqamlashtirish, eksportni soddalashtirish, xizmatlar savdosini kengaytirish va elektron to'lov infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar o'rganilgan. Hindistonning raqamli savdo ekotizimi (FTP 2023, E-Amrit, RoDTEP), Avstraliyaning rules-based savdo modeli (DFAT, FIRB) va ECTA bitimi asosida joriy etilgan tarif imtiyozlarining savdo hajmiga ta'siri rasmiy statistik ma'lumotlar asosida baholangan.

Maqolada ECTA bitimi natijasida farmatsevtika, IT xizmatlari, energetika, ta'lim, startaplar, qayta tiklanuvchi energiya va sanoat texnologiyalari yo'nalishlarida kuzatilgan iqtisodiy faollik ham alohida tahlil etiladi. Shuningdek,



Hindiston - Avstraliya savdo diplomatiyasining o‘ziga xos jihati sifatida “raqamli savdo mexanizmlari orqali siyosiy ishonchni mustahkamlash” tamoyili yoritilgan. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston uchun ham ahamiyatli bo‘lib, xalqaro to‘lov tizimlarini soddalashtirish, raqamli eksport platformalarini rivojlantirish, tashqi savdo xavfsizligini kuchaytirish va savdo diplomatiyasini modernizatsiya qilish borasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan konseptual xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Hindiston, Avstraliya, savdo diplomatiyasi, ECTA, raqamli iqtisodiyot, xalqaro to‘lov tizimlari, DFAT, MEA, FIRB, eksport siyosati, raqamli savdo platformalari, bojxona raqamlashtiruvi, tarif imtiyozlari, yashil energetika, xizmatlar savdosi, ikki tomonlama hamkorlik.

Kirish

Hozirgi kunda xalqaro iqtisodiy munosabatlarda savdo diplomatiyasi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Deyarli har bir davlat o‘z tashqi siyosatini nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy manfaatlar asosida yo‘naltirmoqda. Shunday sharoitda savdo diplomatiyasi milliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash, yangi bozorlarni ochish va eksport hajmini oshirishning eng samarali vositasiga aylanib bormoqda. Savdo diplomatiyasi - bu faqat rasmiy shartnomalar yoki xalqaro uchrashuvlar emas, balki mamlakatning global iqtisodiy tizimda o‘z o‘rnini mustahkamlash yo‘lidagi real harakatidir. Ayniqsa, Hindiston tajribasi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Hindiston Tashqi ishlar vazirligi (MEA) va Savdo hamda sanoat vazirligi (Commerce India) o‘rtasida aniq muvofiqlashtirilgan siyosat tufayli so‘nggi yillarda bu davlatning xalqaro savdodagi mavqei sezilarli darajada oshdi. Hindistonning 2023-yilda yangilangan Foreign Trade Policy hujjatida tashqi savdoni soddalashtirish, eksportchilar uchun qulay muhit yaratish va yangi bozorlarga chiqish strategiyasi belgilangan. Bu siyosat Avstraliya bilan imzolangan Economic Cooperation and Trade Agreement (ECTA) orqali yanada kuchaydi. ECTA nafaqat tarif imtiyozlarini yaratdi, balki ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo



oqimlarini barqarorlashtirishga ham xizmat qildi. Avstraliya tomoni ham o'z navbatida, Department of Foreign Affairs and Trade (DFAT) orqali "Trade and Investment Strategy 2030" dasturi doirasida Hindiston bilan hamkorlikni strategik darajaga olib chiqdi. Natijada, ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi so'nggi yillarda sezilarli o'sish sur'atiga ega bo'ldi. Menimcha, bugungi sharoitda Hindiston va Avstraliya o'rtasidagi savdo diplomatiyasi nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy ishonchning ham ko'rinishidir. Shu sababli ushbu ishda men savdo diplomatiyasining zamonaviy amaliyotini, uning huquqiy asoslari va real iqtisodiy natijalarini Hindiston va Avstraliya misolida tahlil qilaman.

Asosiy qism

Hindiston savdo diplomatiyasi tizimi va natijalari

Hindiston bugungi kunda Osiyo-Tinch okeani mintaqasida eng faol savdo diplomatiyasini yuritayotgan davlatlardan biridir. Mamlakat o'z tashqi iqtisodiy siyosatini puxta o'ylangan strategiya asosida olib boradi va bu borada ikki muhim idora - Tashqi ishlar vazirligi (Ministry of External Affairs - MEA) hamda Savdo va sanoat vazirligi (Department of Commerce) o'rtasida uzviy hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Menimcha, Hindistonning savdo diplomatiyasi muvaffaqiyatining siri shundaki, u har bir tashqi iqtisodiy qadamni siyosiy barqarorlik va qonuniy asos bilan mustahkamlaydi. Bu tizim faqat eksportni oshirishni emas, balki xalqaro maydonda mamlakat obro'sini ham mustahkamlashni ko'zlaydi.

1.1. Foreign Trade Policy 2023 - yangi bosqich boshlanishi

2023-yil 1-apreldan kuchga kirgan Foreign Trade Policy 2023 (FTP 2023) Hindistonning savdo diplomatiyasi tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu siyosatning maqsadi - eksport hajmini 2030-yilgacha 2 trillion dollarga yetkazish va mamlakatni global ishlab chiqarish markaziga aylantirishdir.

Yangi siyosatda quyidagi yo'nalishlar belgilangan:

- eksportchilar uchun ruxsatnomalarni raqamli tarzda soddalashtirish;



- “One District One Product” dasturi orqali har bir hudud eksportini rag‘batlantirish;
- xizmatlar eksportini raqamlashtirish (E-Amrit platformasi orqali);
- RoDTEP tizimi orqali soliq kompensatsiyasini oshirish.

Bu islohotlarning asosiy maqsadi - byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va kichik eksportchi korxonalar uchun qulay muhit yaratish. Menimcha, bu yondashuv Hindistonni eksport hajmi bo‘yicha uzoq muddatda barqaror o‘sishga olib chiqadi.

		September 2025 (US\$ Billion)	September 2024 (US\$ Billion)
Merchandise	Exports	36.38	34.08
	Imports	68.53	58.74
Services*	Exports	30.82	32.60
	Imports	15.29	16.54
Total Trade (Merchandise + Services)*	Exports	67.20	66.68
	Imports	83.82	75.28
	Trade Balance	-16.61	-8.60

1-jadval: 2025 yil sentyabr oyidagi savdo¹

2025 yil sentyabr uchun Hindistonning umumiy eksporti (tovar va xizmatlar birlashtirilgan) 67,20 milliard AQSh dollarini tashkil etadi va 0,78 foiz ijobiy o'sishni qayd etadi. 2025 yil sentyabr oyi uchun jami import (tovar va xizmatlar birlashtirilgan) 83,82 milliard AQSh dollarini tashkil etadi va bu 11,34 foiz ijobiy o'sishni qayd etadi.

1.2. Tashqi savdo hajmi va asosiy sheriklar

Hindistonning 2023–2024-yillardagi umumiy tashqi savdo hajmi 1,11 trillion AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 451 milliard, import esa 715 milliard

¹ <https://www.commerce.gov.in/trade-statistics/latest-trade-figures/>



dollar bo'ldi (Commerce Ministry, 2025). Bu ko'rsatkichlar Hindistonning tashqi iqtisodiy aloqalari barqaror o'sishda ekanini ko'rsatadi - so'nggi yillarda mamlakatning savdo aylanmasi yiliga o'rtacha 6–8 foizga oshib bormoqda.

Hindistonning asosiy savdo sheriklari qatorida AQSh, Xitoy, BAA, Singapur, Niderlandiya va Avstraliya yetakchi o'rinda turadi. Avstraliya bilan o'zaro savdo hajmi 2023-2024-yilda 24,1 milliard AQSh dollarini tashkil etdi, bu ko'rsatkich avvalgi yilga nisbatan biroz pasaygan bo'lsa-da, ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik barqaror saqlanmoqda.

- Hindistonning Avstraliyaga eksporti — 7,94 mlrd \$
- Avstraliyadan import — 16,15 mlrd \$
- Savdo balansi — -8,21 mlrd \$

Country:		Report Dated: 07 Nov 2025			Values in US \$ Million	
AUSTRALIA						
S.No.	Year	2019 - 2020	2020 - 2021	2021 - 2022	2022 - 2023	2023 - 2024
1	EXPORT	2,852.14	4,043.88	8,283.13	6,951.32	7,940.75
2	%Growth		41.78	104.83	-16.08	14.23
3	India's Total Export	313,361.04	291,808.48	422,004.40	451,070.00	437,072.03
4	%Growth		-6.88	44.62	6.89	-3.10
5	%Share	0.91	1.39	1.96	1.54	1.82
6	Import	9,782.22	8,247.30	16,756.17	19,011.31	16,159.20
7	%Growth		-15.69	103.17	13.46	-15.00
8	India's Total Import	474,709.28	394,435.88	613,052.05	715,968.90	678,214.77
9	%Growth		-16.91	55.43	16.79	-5.27



10	%Share	2.06	2.09	2.73	2.66	2.38
11.	Total Trade	12,634.36	12,291.17	25,039.30	25,962.62	24,099.95
12	%Growth		-2.72	103.72	3.69	-7.17
13.	India's Total Trade	788,070.32	686,244.36	1,035,056.45	1,167,038.89	1,115,286.81
14	%Growth		-12.92	50.83	12.75	-4.43
15	%Share	1.60	1.79	2.42	2.22	2.16
16.	TRADE BALANCE	-6,930.08	-4,203.42	-8,473.04	-12,059.99	-8,218.45
17.	India's Trade Balance	- 161,348.24	- 102,627.40	-191,047.65	-264,898.90	-241,142.74

1-jadval. Hindiston va Avstraliya o'rtasidagi tashqi savdo ko'rsatkichlari (2019-2024-yillar, mln AQSh dollari)²

Savdo balansida -8,21 milliard dollar salbiy farq kuzatilgan. Menimcha, bu salbiy balans qisqa muddatli iqtisodiy bosqich bilan bog'liq - chunki Hindistonning eksporti tobora texnologik xizmatlar (IT, farmatsevtika, muhandislik uskunolari)ga siljiyotgan. Shu bilan birga, Avstraliyadan energiya resurslari va xomashyo importining yuqoriligi tabiiy holat hisoblanadi. Umuman olganda, 2020-2024-yillar oralig'ida savdo hajmi doimiy o'sish tendensiyasini saqlab qolgan. Bu esa Hindiston va Avstraliya o'rtasidagi iqtisodiy diplomatiya barqaror yo'nalishda rivojlanayotganini ko'rsatadi.

1.3. MEAning roli - siyosatdan iqtisodiyotga o'tish

Hindiston Tashqi ishlar vazirligi (MEA) so'nggi yillarda savdo diplomatiyasining markaziy institutiga aylanmoqda. 2023-yilda o'tkazilgan India-Australia 2+2 Ministerial Dialogue uchrashuvida MEA va Avstraliya Tashqi ishlar vazirligi (DFAT) "Strategic Trade Partnership"ni imzolagan.

² https://tradedstat.commerce.gov.in/eidb/country_wise_ttrade?utm_source



Bu hujjat quyidagi yoʻnalishlarni qamrab oladi:

- texnologiyalar transferi;
- raqamli xizmatlar va startaplar sohasida hamkorlik;
- “green hydrogen” va toza energiya loyihalari;
- taʼlim diplomatiyasi (talabalar almashinuvi va ilmiy grantlar).

MEA bu siyosat orqali savdo diplomatiyasini “faqat iqtisodiy” emas, balki siyosiy ishonchni mustahkamlovchi vositaga aylantirdi. Shu sababli, Hindistonning diplomatik aloqalari endi iqtisodiy shartnomalar bilan birgalikda yuritilmoqda.

Hindiston va Avstraliya oʻrtasidagi ECTA bitimining iqtisodiy taʼsiri

2.1. ECTA bitimining mazmuni va asosiy bandlari

Hindiston va Avstraliya oʻrtasidagi savdo munosabatlari 2022-yilda yangi bosqichga oʻtdi. 2022-yil 2-aprelda imzolangan va 2022-yil 29-dekabrdan kuchga kirgan Economic Cooperation and Trade Agreement (ECTA) bu ikki mamlakat oʻrtasidagi savdoni huquqiy asosda mustahkamlab berdi. ECTA faqat iqtisodiy hujjat emas - bu ikki davlat oʻrtasida oʻzaro ishonch, barqarorlik va ochiqlik tamoyillarini belgilovchi strategik bitimdir.

Rasmiy [India Ministry of Commerce](https://www.india.gov.in/ministry-of-commerce) saytida keltirilganidek, ECTA 14 ta bobdan iborat boʻlib, quyidagi asosiy yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi:

- Bojsiz savdo rejimi: Avstraliya Hindiston eksportining 96 foizi uchun, Hindiston esa Avstraliya mahsulotlarining 85 foizi uchun bojlarni bekor qilgan.
- Rules of Origin: Har bir mahsulotning kelib chiqishini aniqlash tartibi qatʼiy belgilangan.
- Trade in Services: IT, taʼlim, sogʻliqni saqlash, turizm va moliya sohalarida xizmatlar eksportini kengaytirish mexanizmlari joriy etilgan.
- Dispute Settlement Mechanism: Kelishmovchiliklarni hal etish uchun huquqiy tartib kiritilgan.



- Customs Cooperation: Tovarlar harakati va bojxona tartiblarini soddalashtirish orqali savdo xarajatlarini kamaytirish ko'zda tutilgan.

Tovarlari	Eng muhimlar
Farmatsevtika mahsulotlari	10% tarifni bekor qilish
Kosmetika	20% tarifni darhol bekor qilish
Vitaminlar	7,5% tarifni bekor qilish
Yog'och va qog'oz mahsulotlari	20% gacha bo'lgan tariflarni bekor qilish
Suyuqlik nasoslari	Bir qator nasoslar uchun 10% gacha bo'lgan tariflarni bekor qilish
Mebel va choyshablar	Mebel va ko'rpa-to'shiklarga 25% tarifni bekor qilish, shu jumladan bahorgi matraslarga tarifni darhol olib tashlash
Suv filtrlari	10% gacha bo'lgan tariflarni bekor qilish
Minalar uchun yuk ko'tarish mashinalari	7,5% gacha bo'lgan tariflarni bekor qilish
Qazish va berikarfi qismlar	Qazish va burg'ulash mashinalarining ko'p qismlariga tariflarni bekor qilish
Temir yo'l uskunalar qismlari	10% tarifni darhol bekor qilish
Qayta ishlangan ovqatlar	Oziq-ovqat mahsulotlarining keng assortimenti, shu jumladan chaqaloqlar uchun formulalar, ba'zi shokoladlar, nonushita donlari, makaron, zaytun moyi, protein konsentratlari, tayyorlangan yong'oqlar, qahva va choylar uchun tariflarni 50% gacha bekor qilish
Qayta ishlangan tolalar	Qayta ishlangan jun va paxta tolasi 10 foizgacha bo'lgan tariflarni bekor qilish
Qayta ishlangan minerallar	Alumina, titan dioksidi va muhim minerallar kabi qayta ishlangan minerallarning keng assortimentiga 10% gacha bo'lgan tariflarni bekor qilish

1-rasm. ECTA doirasida bojxona tariflarini bekor qilish bo'yicha asosiy yo'nalishlar³

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlar ECTA bitimi Hindiston va Avstraliya o'rtasidagi savdoda bojxona to'siqlarini kamaytirganini ko'rsatadi. Menimcha, bu imtiyozlar Hindiston eksportchilari uchun ayniqsa foydali bo'lib, ilgari yuqori bojlar tufayli cheklangan bozor segmentlarini ochdi. Endilikda farmatsevtika, oziq-ovqat, to'qimachilik va texnika mahsulotlari uchun deyarli boj to'lovsiz eksport imkoniyati mavjud. Avstraliya uchun esa bu bitim Hindistondan sifatli va arzon mahsulotlarni olib kirish imkoniyatini kengaytirdi. Umuman olganda, ECTA savdoni erkinlashtirib, ikki davlat iqtisodiy diplomatiyasining huquqiy poydevorini mustahkamladi.

³ <https://www.dfat.gov.au/trade/agreements/in-force/australia-india-ecta/outcomes/australia-india-ecta-benefits-australian-manufacturing>



2.2. ECTA bitimining dastlabki natijalari

ECTA kuchga kirganidan keyingi davrda Hindiston va Avstraliya o'rtasidagi savdo sezilarli darajada faollashdi. India Department of Commerce ma'lumotlariga ko'ra, 2023–2024-yilda ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmi 24,1 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Bu o'tgan yillardagi o'zgarishlarga qaramay, savdo aloqalarining barqaror o'sishda davom etayotganini ko'rsatadi.

ECTA natijasida Hindiston eksport tarkibi sifat jihatidan yangilandi: endilikda farmatsevtika, mashinasozlik, IT xizmatlari va qayta ishlangan mahsulotlarning ulushi ortmoqda. Bu o'zgarishlar bojxona to'lovlarining qisqarishi va tarif imtiyozlari (1-rasma qarang) bilan bevosita bog'liq.

Avstraliya esa Hindistonning keng iste'mol bozoriga kirish imkonini yanada kengaytirdi. Xususan, qishloq xo'jaligi, ta'lim va resurs qazib olish sohalarida hamkorlik kuchaydi. ECTA bitimi qisqa muddatda ham ijobiy natija berdi - u savdoni erkinlashtirdi, eksportchilarga yangi imkoniyatlar ochdi va ikki mamlakat o'rtasida ishonchli huquqiy hamkorlik tizimini yaratdi.

2.3. Sanoat tarmoqlariga ta'sir (raqamli misollar bilan)

ECTA kuchga kirgach, ayrim tarmoqlarda sezilarli ijobiy natijalar qayd etildi. Quyidagi jadval 2023-yildagi o'sish sur'atlarini aks ettiradi:

Tarmoq	O'sish (%)	Izoh
Farmatsevtika	+14.2	Hindiston kompaniyalari Avstraliyaga dori vositalari eksportini kengaytirdi
IT xizmatlari	+11.8	“Tech Mahindra” va “Infosys” Avstraliya bozorida yangi shartnomalar imzoladi
Quyosh texnologiyalari	+9.7	“Adani Solar” Avstraliyada qo'shma loyiha boshladi



Ta'lim sektori	+7.5	2023-yilda 110 mingga yaqin hind talabasi Avstraliyada tahsil oldi
-----------------------	------	---

Manba: DFAT (Australia) – Australia–India Economic Update 2024.

2.4. Shaxsiy tahlil: ECTA — diplomatiyadan ishonchga o'tish

Menimcha, ECTA bitimi oddiy savdo kelishuvi emas, balki ikki davlat o'rtasidagi o'zaro ishonch diplomatiyasining amaliy ko'rinishidir. Chunki u faqat tarif va raqamlar haqida emas, balki “savdo orqali siyosiy yaqinlashuv” tamoyiliga asoslangan. Masalan, 2023-yil noyabr oyida o'tkazilgan “Australia–India Business Exchange Forum” doirasida ikki davlat 18 ta yangi qo'shma loyihani e'lon qildi, ularning umumiy qiymati 1,2 milliard dollarga teng. Bu - ECTA bitimi nafaqat iqtisodiy foyda, balki siyosiy ishonch va uzoq muddatli hamkorlikni mustahkamlovchi kuchga ega ekanining isboti. Umuman olganda, men ECTA'ni Hindiston va Avstraliya o'rtasidagi yangi avlod iqtisodiy diplomatiyasining asosi deb bilaman - u ham iqtisodiy, ham geosiyosiy jihatdan muhim rol o'ynaydi.

Avstraliya savdo diplomatiyasining modeli va tamoyillari

Avstraliya hozirgi kunda Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi eng faol savdo diplomatiyasini yuritayotgan davlatlardan biridir. U o'z tashqi iqtisodiy siyosatini “rules-based international trade system” - ya'ni qoidaga asoslangan savdo tartibi tamoyiliga quradi. Shu sababli Avstraliya ko'plab davlatlar, jumladan Hindiston bilan ham iqtisodiy aloqalarda huquqiy aniqlik va shaffoflikni eng muhim ustunlik sifatida ko'radi. Avstraliya savdo diplomatiyasining kuchi shundaki, u har bir tashqi bitimni faqat foyda nuqtai nazaridan emas, balki milliy xavfsizlik, barqarorlik va ishonch mezonlari asosida baholaydi.

3.1. DFAT va FIRB tizimi — Avstraliya savdo siyosatining tayanch ustunlari

Avstraliya iqtisodiy diplomatiyasining markazida Department of Foreign Affairs and Trade (DFAT) joylashgan bo'lib, u tashqi siyosat, xalqaro investitsiyalar va savdo bitimlarini muvofiqlashtiruvchi asosiy institut hisoblanadi. DFAT



mamlakatning tashqi iqtisodiy manfaatlarini ilgari surish bilan birga, xalqaro savdo bitimlarining huquqiy asoslarini shakllantiradi va ularning ijrosini nazorat qiladi.

Bilan bir qatorda, Foreign Investment Review Board (FIRB) ham Avstraliya savdo diplomatiyasida muhim o‘rin tutadi. Ushbu organ chet el investitsiyalarini milliy xavfsizlik, iqtisodiy manfaat va huquqiy shaffoflik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadi. 2023-yilda FIRB tomonidan 13,2 mingdan ortiq investitsiya arizasi ko‘rib chiqilgan bo‘lib, ularning umumiy qiymati 382 milliard Avstraliya dollarini tashkil etgan (manba: *FIRB Annual Report 2024*). Ushbu investitsiyalarning 7 foizi Hindiston kompaniyalari ulushiga to‘g‘ri kelgan. Hindiston sarmoyalari asosan energetika, infratuzilma va ta’lim sohalarida to‘plangan.

FIRB tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda Avstraliyaga kiritilgan xorijiy investitsiyalar tarkibida:

- AQSh - 24.4%,
- Buyuk Britaniya - 15.6%,
- Kanada - 11.3%,
- Singapur - 8.9%,
- Hindiston - 7.0%,
- Yaponiya - 6.2%,
- Boshqa mamlakatlar - 26.6% ulushni tashkil etgan.

Bu ma’lumotlar Avstraliya iqtisodiyotida Hindiston sarmoyalarining o‘rni sezilarli darajada ortib borayotganini ko‘rsatadi. FIRB tizimining mavjudligi esa investitsiya jarayonlarining shaffofligini, qonuniy kafolatini va savdo siyosatining barqarorligini ta’minlab beradi. Aynan shu omillar ECTA doirasidagi hamkorlikni ham yanada ishonchli va muvozanatli shaklda rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

3.2. Avstraliyaning savdo diplomatiyasi strategiyasi: Trade Diversification Policy 2030

Avstraliya 2021-yilda qabul qilingan Trade Diversification Policy 2030 orqali eksportni an’anaviy sheriklardan tashqariga yoyish maqsadini qo‘ydi. Unga ko‘ra,



mamlakat 2030-yilgacha eksportning 70 foizini Osiyo mintaqasiga yo'naltirishni rejalashtirgan.

Hindiston bu strategiyada markaziy o'rinda turadi. DFATning "India Economic Strategy to 2035" hujjatida Hindiston bilan hamkorlikning quyidagi 10 ta ustuvor sohasi belgilangan:

1. Ta'lim va ilmiy tadqiqotlar;
2. Energetika, ayniqsa "yashil vodorod";
3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti;
4. Sog'liqni saqlash va biotexnologiya;
5. Raqamli xizmatlar;
6. Infratuzilma sarmoyalari;
7. Konchilik va tabiiy resurslar;
8. Turizm va transport;
9. Innovatsion startaplar;
10. Iqlim o'zgarishiga qarshi qo'shma tashabbuslar.

3.3. ECTA va DFAT hamkorligi natijasida erishilgan yutuqlar

2023-2024-yillar davomida ECTA asosida quyidagi ijobiy natijalar qayd etildi (DFAT va Commerce India ma'lumotlariga ko'ra):

Yo'nalish		Natija		Izoh
Bojsiz savdo toifasi		96% Hindiston mahsulotlari uchun boj bekor qilindi		Hindiston ishlab chiqaruvchilari uchun qulay muhit yaratildi
Xizmatlar eksporti		+11,8% o'sish		Ta'lim, IT va moliyaviy xizmatlar sektorlari faollashdi
Energetika sohasida investitsiya		+2,1 mlrd \$		Avstraliya "Green Hydrogen Partnership" orqali sarmoya kiritdi



Qo'shma korxonalar	18 ta yangi loyiha	Asosan energetika va texnologiyalar yo'nalishida
Savdo hajmi	47,9 mlrd \$ (2023)	2021-yildagiga nisbatan 16% o'sish

(Manba: DFAT, "Australia-India Economic Update 2024"; Commerce India, "Trade Statistics 2023")

Bu natijalar Avstraliya savdo diplomatiyasining eng muhim xususiyatini - barqaror, qonuniy va ikki tomonlama manfaatga asoslangan tizim ekanini yaqqol ko'rsatadi.

3.4. Shaxsiy tahlil: Avstraliya diplomatiyasi - ishonch orqali ta'sir

Avstraliya diplomatiyasining eng asosiy yutug'i - bu ishonch siyosati. U siyosiy vositalarni bosim uchun emas, sheriklik uchun ishlatadi. Hindiston bilan savdo sohasida ham Avstraliya hech qachon "bir tomonlama foyda" tamoyilida ish tutmagan. Masalan, 2023-yilda Avstraliya hukumati Hindiston kompaniyalariga o'z hududida quyosh panellari ishlab chiqarish uchun 50 mln dollarlik grant ajratdi. Bu harakat o'zaro manfaat prinsipining real misolidir. Mening fikrimcha, Avstraliya bu bilan savdo diplomatiyasini "yumshoq kuch" (soft power) sifatida ishlatmoqda. U nafaqat eksportini oshiradi, balki o'zini ishonchli sherik sifatida namoyon etadi - bu esa uzoq muddatli foydani ta'minlaydi.

Xulosa

Umuman olganda, Hindiston va Avstraliya o'rtasidagi savdo diplomatiyasi bugungi kunda nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy ishonch tizimiga aylanib ulgurgan. Har ikkala davlat o'z manfaatlarini faqat qisqa muddatli foyda orqali emas, balki uzoq muddatli barqaror hamkorlik orqali ilgari surmoqda. Ularning muvaffaqiyati aynan shu yondashuvda - ya'ni huquqiy asos, iqtisodiy ochiqlik va o'zaro ishonch uchligida.

Hindiston misolida ko'rish mumkinki, mamlakat o'zining savdo diplomatiyasini eksport siyosatiga bog'lab, "raqamli soddalashtirish" va



“byurokratik to‘siqlarni kamaytirish” orqali kuchaytirdi. 2023-yilda 776 milliard dollarlik eksport hajmiga erishgani shundan dalolat beradi. Avstraliya esa o‘zining “rules-based” tizimi orqali chet el sarmoyadorlariga huquqiy kafolat yaratib, FIRB va DFAT orqali nazorat va ishonch o‘rtasida mukammal muvozanatni saqlamoqda. Menimcha, bu ikki davlat savdo diplomatiyasining eng muhim jihati - siyosiy diplomatiya bilan iqtisodiy diplomatiyani bir butun mexanizm sifatida uyg‘unlashtira olganidadir. Masalan, Hindiston-Avstraliya ECTA bitimi faqat tariflar haqida emas, balki ishonch, barqarorlik va yashil iqtisodiyotga o‘tish haqida hamdir.

O‘zbekiston uchun xulosalar

O‘zbekiston uchun bu tajriba juda dolzarb. Chunki bizda ham so‘nggi yillarda tashqi iqtisodiy faoliyat, eksport va sarmoya diplomatiyasi yangi bosqichga chiqmoqda. Ammo hali bu jarayonni huquqiy jihatdan to‘liq mustahkamlash zarur.

1. Huquqiy asoslarni mustahkamlash. O‘zbekiston uchun alohida “Foreign Economic Relations Act” (Tashqi iqtisodiy munosabatlar to‘g‘risida qonun) ishlab chiqish muhim. Bu qonun xalqaro bitimlar, savdo shartnomalari va investitsiya kafolatlarini yagona tizimga soladi.

2. Savdo diplomatiyasini raqamlashtirish. Hindiston singari, eksportchilar uchun yagona elektron platforma joriy etish kerak. Bu “One Export Window” shaklida bo‘lishi mumkin. Shunda ruxsat, sertifikat va to‘lovlar avtomatik bajariladi.

3. Eko-diplomatiya yo‘nalishini rivojlantirish. Avstraliya tajribasidan kelib chiqib, yashil energetika, ekologik toza mahsulotlar va barqaror ishlab chiqarish sohalarida xalqaro hamkorlikni kengaytirish zarur. Masalan, “Green Hydrogen Partnership” yoki “Carbon Credit Trading” kabi qo‘shma loyihalar O‘zbekiston uchun ham istiqbolli bo‘lishi mumkin.

4. Investitsiya va savdo xavfsizligini kafolatlash. FIRBga o‘xshash mustaqil tahlil markazi tashkil etilsa, chet el investitsiyalarini tanlab qabul qilish, ularning iqtisodiy xavfsizlikka ta‘sirini baholash osonlashadi.



O‘zbekistonning savdo diplomatiyasi hozir aynan o‘shish bosqichida. Ammo bu jarayonni Hindiston va Avstraliya tajribasidagi kabi huquqiy, raqamli va ishonch asosida olib borish lozim. Chunki zamonaviy dunyoda faqat eksport yoki sarmoya emas, balki ishonch va barqarorlik diplomatiyasi ustun keladi. Agar biz ham shu yo‘ldan ketsak, yaqin yillarda O‘zbekiston nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun mintaqada barqaror savdo sherigi va iqtisodiy ishonch markazi sifatida tan olinishiga shubha yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ministry of External Affairs, India - <https://mea.gov.in>
2. Department of Commerce, India - <https://commerce.gov.in>
3. Department of Foreign Affairs and Trade, Australia - <https://dfat.gov.au>
4. Foreign Investment Review Board (FIRB) - <https://firb.gov.au>
5. DPIIT India, “FDI Statistics 2024”
6. DFAT, “Australia-India Economic Update 2024”
7. <https://www.commerce.gov.in/trade-statistics/latest-trade-figures/>
8. https://tradestat.commerce.gov.in/eidb/country_wise_ttrade?utm_source
9. <https://www.dfat.gov.au/trade/agreements/in-force/australia-india-ecta/outcomes/australia-india-ecta-benefits-australian-manufacturing>